



Globalizatsiya ta’lim sohasida yangi paradigmalarni shakllantirdi. Xalqaro ta’lim standartlari, masalan, PISA (Programme for International Student Assessment) kabi tashabbuslar, mamlakatlar o’rtasida ta’lim sifatini taqqoslash va yaxshilash imkonini beradi [5]. Shuningdek, global ta’lim tendensiyalari o’quv dasturlariga ko’p madaniyatli yondashuv va global kompetensiyalarni kiritishni talab qilmoqda.

Masalan, UNESCO’ning “Ta’lim 2030” dasturi barqaror rivojlanish va global fuqarolikni targ’ib qiluvchi ta’lim tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu paradigma ta’limni faqat milliy darajada emas, balki global miqyosda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt ta’limdagi yangi paradigmalarning muhim tarkibiy qismiga aylandi. AI nafaqat o’quv jarayonini shaxsiylashtirishda, balki ta’lim muassasalarini boshqarishda ham qo’llanilmoqda. Masalan, AI asosidagi tahlil vositalari o’qituvchilarga o’quvchilarning muvaffaqiyatini bashorat qilish va ta’lim strategiyalarini optimallashtirishda yordam beradi [6].

Biroq, AI’ning ta’limda qo’llanilishi axloqiy masalalarni ham keltirib chiqaradi, masalan, ma’lumotlar maxfiyligi va tengsizlik muammolari. Shu sababli, AI’ni ta’limda qo’llashda muvozanatli yondashuv zarur.

Zamonaviy paradigmalarning quyidagi afzalliklari mavjud:

-Moslashuvchanlik- raqamli platformalar va shaxsiy yondashuv har bir o’quvchiga mos ta’lim imkonini beradi.

- O’quvchilar faolligi - interaktiv metodlar o’quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

- Global integratsiya -global ta’lim tendensiyalari xalqaro hamkorlik va raqobatbardoshlikni oshiradi.

Shu sababli zamonaviy ta’lim paradigmalarini joriy qilish samarali. Ularni muvaffaqiyatli qo’llash uchun quyidagi choralar ko’rilishi lozim:

1. O’qituvchilar uchun raqamli savodxonlik va interaktiv metodlar bo’yicha doimiy treninglar tashkil qilish.

2. Ta’lim muassasalarida zamonaviy infratuzilma (yuqori tezlikdagi internet, qurilmalar) yaratish.

3. Shaxsiy yondashuvni ta’minlash uchun moslashuvchan ta’lim tizimlarini joriy qilish.

4. Davlat va xususiy sektor hamkorligida ta’lim texnologiyalarini moliyalashtirish.

5. AI va boshqa texnologiyalarni qo’llashda axloqiy me’yorlar va ma’lumotlar maxfiyligiga rioya qilish.

Demak, xulosa shuki, zamonaviy ta’limdagi yangi paradigmalar ta’lim jarayonini yanada samarali, moslashuvchan va global talablarga mos qilmoqda. Raqamli transformatsiya, shaxsiy yondashuv, interaktiv metodlar va sun’iy intellekt ta’limning kelajagini belgilaydi. Shu bilan birga, ushbu paradigmalarini joriy qilishda infratuzilma, moliyaviy resurslar va malakali kadrlar zarur. Ta’lim sohasida innovatsiyalarni davom ettirish orqali global raqobatbardoshlikka ega, bilimdon va ijodkor avlodni tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Wang, S., & Zhang, D. (2020). The Impact of Digital Technologies on Education: Opportunities and Challenges. *Journal of Educational Technology*, 15(3), 45-56.

2. Johnson, L., & Smith, R. (2021). Artificial Intelligence in Education: Personalizing Learning Experiences. *AI in Education Review*, 12(4), 23-34.

3. Clark, D. (2022). Adaptive Learning Systems: Enhancing Personalized Education*. *International Journal of Learning Technologies*, 18(1), 12-20.

4. Bell, S. (2019). Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. *Educational Leadership*, 77(2), 39-45.

5. Ernazarova G.O. Formation of technological competence in future educators./ наука и инновации/международный научный журнал выпуск тома 2. 1 ноябрь 2023. пиф 8.26 ISSN: 2181-3337 scientists.uz.473-477 c.

6. Ernazarova G.O. Pedagogik mutaxassislar tayyorlashni aksiologik yondashuv asosida tashkil etishning ahamiyati/ Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari respublika ilmiy jurnali. ISSN: 2181-1342.1-son. 2025. 18-23 betlar.

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

p.f.d (DSc), prof. **Ernazarova Gulnora Oblaqluvna**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori,



Rahmetova Hilola Rashid qizi, Bozorova Marjona Hamid qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistrantlari,

Email: gulnora-ernazarova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlashning ilmiy tahlili, pedagogik aksiologiyaning muhim jihatlari, pedagogik aksiologiyaning ta’limdagi ahamiyatining omillarga bog’liqligi, pedagogik qadriyatlarni o’rganish yo’nalishlari, aksiologik yondashuvlar asosida maxsus fanlarni tashkil etish, bo’lajak o’qutuvchilarda shaxsiy qadriyatlar, insoniy fazilatlar, axloqiy qarashlarni hayotiy ko’nikmalar sifatida rivojlantirish mexanizmlari, metodik tizimi, amaliy ishlanmalar ahamiyati yoritilgan.

Kalit soʻzlar: pedagogik aksiologiya, pedagogik qadriyat, aksiologik yondashuv, bo’lajak o’qutuvchilar, shaxsiy qadriyatlar, insoniy fazilatlar, axloqiy qarashlar, hayotiy ko’nikmalar, rivojlantirish mexanizmlari, metodik tizim

THE IMPORTANCE OF ORGANIZING EDUCATION BASED ON AN AXIOLOGICAL APPROACH

Doctor of Pedagogical Sciences, Professor Gulnora Oblakulovna Ernazarova

Professor, Chirchik State Pedagogical University

Hilola Rashid kyzy Rahmetova, Marjona Hamid kyzy Bozorova

Master's degree, Chirchik State Pedagogical University

Email: gulnora-ernazarova@mail.ru

Abstract: This article presents a scientific analysis of the training of teaching staff based on educational values, significant aspects of pedagogical axiology, the dependence of the importance of pedagogical axiology in education on factors, the direction of the study of pedagogical values, the organization of special disciplines based on axiological approaches, mechanisms for the development of personal values, human qualities, moral views as life skills among future teachers, the methodological system, highlights the importance of practical developments

Key words: pedagogical axiology, pedagogical value, axiological approach, future teachers, personal values, human qualities, human qualities, moral views, life skills, development mechanisms, methodological system

ВАЖНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

д.п.н., профессор Эрнazarova Гульнора Облакуловна

профессор Чирчикского государственного педагогического университета,

Рахматова Хилола Рашид кызы,

Бозорова Маржона Хамид кызы

Магистры Чирчикского государственного педагогического университета,

Email: gulnora-ernazarova@mail.ru

Аннотация: В данной статье представлен научный анализ подготовки педагогических кадров на основе образовательных ценностей, значимые аспекты педагогической аксиологии, зависимость значимости педагогической аксиологии в образовании от факторов, направления изучения педагогических ценностей, организация специальных дисциплин на основе аксиологических подходов, механизмы развития личностных ценностей, человеческих качеств, нравственных взглядов как жизненных навыков у будущих педагогов, методическая система, освещается важность практических разработок.

Ключевые слова: педагогическая аксиология, педагогическая ценность, аксиологический подход, будущие учителя, личностные ценности, человеческие качества, человеческие качества, нравственные взгляды, жизненные навыки, механизмы развития, методическая система



Pedagog mutaxassislar tayyorlash jarayonida kasbiy darslarni aksiologik yondashuvlar asosida tashkil etish, bo’lajak o’qutuvchilarda shaxsiy qadriyatlar, insoniy fazilatlar, axloqiy qarashlarni hayotiy ko’nikmalar sifatida rivojlantirish mexanizmlari, metodik tizimi, amaliy ishlanmalarini joriy etish zarur.

“Aksiologiya” yunoncha «axio» - qadriyat va «logos» - fan, ta’limot - qadriyatshunoslik; qadriyatlar haqidagi fan degan ma’noni bildiradi. Ushbu termin XIX asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapilar tomonidan fanga kiritilgan [1]. Aksiologik yondashuv insonparvarlik pedagogikasi bo’lib, jamoaviy rivojlanish jamiyatning oliy qadriyati sifatida qaraladi. Faqat XX asr boshidanoq aksiologiya falsafada alohida yo’nalish sifatida tan olindi. Bu harakat 1902 yilda nemis olimi P.Lapi tashabbusi bilan boshlangan.

Aksiologik qadriyatlarni birlashtirish dolzarbligi pedagoglarni tashvishga soladigan jarayonga aylanmoqda. Bu masalani samarali hal etayotgan mutaxassislar N.D.Nikandrov, V.A.Karakovskiy, B.T.Lixachev, V.A.Slastenin, A.E.Daniluk va boshqalardir [5, 7].

O’zbekistonda olimlarimizdan O.Musurmonova, ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi [5], Q.Nazarov, aksiologiya.

Qadriyatlar falsafasi [6], B.X.Xodjayev, pedagogik aksiologiya [8], Sh.Q.Mardonov, yangi ta’limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish [2] kabi ko’plab qadriyat masalasi o’rganilgan.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, pedagogik qadriyatlarni quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiq:

-jamoaviy pedagogik qadriyatlar; individual-shaxsiylashtirilgan pedagogik qadriyatlar; ta’lim oluvchining pedagogik qadriyatlari;

-ta’lim beruvchining pedagogik qadriyatlari.

Pedagogik qadriyatlar ma’naviy-axloqiy, kasbiy va ijtimoiy qadriyatlar sifatida guruhlanadi va ular ham umumiy, ma’naviy-axloqiy, estetik, intellektual, ijodiy yo’nalishlarda shakllanadi.

Pedagogik qadriyatlardan foydalanish shaxsning jamiyatdagi o’z o’rni va mavqeini, ijtimoiy faolligini, ijtimoiy tajribasini, ijtimoiy mas’uliyatini, jamiyatda o’zini o’zi anglashini, shuningdek, huquqiy madaniyat kabi fazilatlarini shakllantirish imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogikaning uslubiy asosi sifatida aksiologik yo’nalishni tanlash ta’limni ushbu yetakchi tushunchalarning asosiy kategoriyalarida aks ettirilgan ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida ko’rib chiqish imkonini oshiradi.

Pedagogik aksiologiyaning predmeti qadriyatlarni o’rganadi. U quyidagi yo’nalishlarda namoyon bo’ladi:

1. Ilmiy pedagogik tadqiqotlar. Qadriyatlar sifati nuqtai nazaridan tadqiqot natijalari innovatsion, dolzarb, nazariy va amaliy ilmiy usullar bilan tavsiflanadi. Samaradorlik asosida tadqiqot ilmiy, amaliy, ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai nazardan baholanishi mumkin.

2. Innovatsion faoliyat. Agar bu natijalar ta’lim maqsadiga hissa qo’shsa, ularning mazmuni va jarayoni qadriyatlar sifatida muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega. Bu yerda biz pedagogik tadbirlarning yangiligi, amaliy ahamiyati va boshqa qimmatli jihatlarni muhokama qilishimiz mumkin. Pedagogik qadriyatlar tizimini tushunmasdan va pedagogik hodisalarning mexanizmlarini baholamasdan turib, pedagogik innovatsiyalarning mohiyatini tushunish mumkin emas.

3. Pedagogik tadbirlar. Pedagogik aksiologiya deganda nafaqat yangiliklar, balki jamoat amaliyotida takrorlanib kelayotgan va pedagogik an’anaga uzoq vaqtdan beri kirib kelgan hodisa va jarayonlar ham tushuniladi. Pedagogik hodisalar pedagogik aksiologiyada o’rganilishi kerak bo’lgan qadriyatlarining birinchi yirik guruhini tashkil qiladi. Pedagogik tadbirlar o’z sifatiga ko’ra bir-biridan farq qiladi: ularning sifati hodisaning mazmuni va o’ziga xosligi bilan, uni aniqlash nuqtai nazaridan aniqlanadi.

Xulosa shuki, zamonaviy kasbiy ta’limda pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta’lim natijasida bo’lajak pedagoglarda kasbiy qadriyatlar va halollik, birdamlik, mas’uliyat, jasorat, erkinlik, ishonch, kamtarlik, rahm-shafqat, e’tibor, kechirimlilik, axloq, sadoqat, haqiqat, adolat, saxiylik, o’zini o’zi tarbiyalash kabi umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Лесневская Н. Г. Становление и развитие аксиологического подхода в истории образования России с 90-х годов XIX века по 1917 год : дис.... канд. науки. Н. Новгород, 2001. 200 с
2. Mardonov Sh.Q. Yangi ta’limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – Toshkent: Fan, 2006. – 232 b.



3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo ‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. I jild. Toshkent, O‘zbekiston, NMIU, 2017. - B.146.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan -milliy yuksalish sari. 4-jild.- T.: “O‘zbekiston”, 2020. - 400 b.
5. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. -Toshkent, «O‘qituvchi», 1996. 146 b.
6. Назаров Қ. Аксиология. Қадриятлар фалсафаси. – Т.: Маънавият, 1998. 41 б
7. Розов Н. Ценности в проблемном мире: философские основания и социальные приложения конструктивной аксиологии. – Новосибирск: Изд-во Новосибирского ун-та, 1998. 113 с.
8. Xodjayev B.X. “Pedagogik aksiologiya” o‘quv qo‘llanma. T. “Fan va texnologiya”, 2011. - 156 bet.

INKLYUZIV TA’LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSION METODLAR

Nematova Feruza Akmal

Buxoro davlat Pedagogika instituti, 2-kurs magistranti

E-mail: feruzanematova256@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim tizimining mohiyati, zamonaviy yondashuvlar va innovatsion metodlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida nogironligi bo‘lgan bolalar uchun qulay sharoit yaratish, individual yondashuvni joriy etish hamda raqamli texnologiyalar orqali ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, innovatsion metodlar, zamonaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Нематова Феруза Акмаловна

Бухарский государственный педагогический институт, 2 курс магистратуры

E-mail: feruzanematova256@gmail.com

Аннотация: В статье анализируется сущность инклюзивного образования, современные подходы и значение инновационных методов. Рассматриваются пути повышения эффективности образования посредством цифровых технологий и индивидуального подхода к детям с ограниченными возможностями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, инновационные методы, современные подходы, цифровые технологии.

MODERN APPROACHES AND INNOVATIVE METHODS IN INCLUSIVE EDUCATION

Nematova Feruza Akmalovna

Bukhara State Pedagogical Institute, 2nd year master's student

E-mail: feruzanematova256@gmail.com

Abstract: This article analyzes the essence of inclusive education, the importance of modern approaches and innovative methods. It discusses ways to improve the effectiveness of education for children with disabilities through digital technologies and individualized teaching methods.

Keywords: inclusive education, innovative methods, modern approaches, digital technologies

Bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsion jarayonlar, raqamli texnologiyalar va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta’lim — bu barcha bolalar, jumladan, jismoniy yoki aqliy cheklovlarga ega bo‘lgan shaxslarning ta’lim jarayonida teng ishtirok etishini ta’minlovchi tizimdir.

Inklyuziv ta’limning maqsadi har bir bolaning salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish va teng imkoniyatlar muhitini yaratishdan iboratdir. So‘nggi yillarda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri — inklyuziv ta’lim tizimini